

## O'ZBEKISTON SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH

**Holmirzayeva Gulruh Akbarovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Investitsiya va innovatsiya kafedrası  
assistenti

[gulruxxolmirzayeva@gmail.com](mailto:gulruxxolmirzayeva@gmail.com)

**Tojiboyev Javlonbek Ravshanbek o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

[tojiboyevjavlon844@gmail.com](mailto:tojiboyevjavlon844@gmail.com)

**Sharipov Boymurod Hatam o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

[sharipovboymurod1995@gmail.com](mailto:sharipovboymurod1995@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ilmiy va innovatsion tizimlarni rivojlantirishning muhim jihatlari ko'rib chiqadi. Xususan, ilmiy resurslarni kengaytirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion tizimlarni kuchaytirish, ilmiy jurnallarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va ilmiy-tadqiqot sohasida shaffoflikni ta'minlash kabi masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda tavsiya etilgan chora-tadbirlar O'zbekistonning ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro ilmiy jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlash va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan qadamlarni belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy resurslar, xalqaro ilmiy hamkorlik, innovatsion tizim, ilmiy jurnallar, tijoratlashtirish, shaffoflik, ilmiy tadqiqotlar, O'zbekiston, innovatsion iqtisodiyot.

**Аннотация:** Данное исследование рассматривает ключевые аспекты развития научных и инновационных систем. В частности, анализируются такие вопросы, как расширение научных ресурсов, развитие международного научного сотрудничества, укрепление инновационных систем, поддержка научных журналов, коммерциализация научных исследований и обеспечение прозрачности в научной деятельности. Предложенные меры в исследовании определяют необходимые шаги для повышения научного потенциала Узбекистана, укрепления его позиций в международном научном сообществе и значительного вклада в развитие инновационной экономики.

**Ключевые слова:** Научные ресурсы, международное научное сотрудничество, инновационные системы, научные журналы,

коммерциализация, прозрачность, научные исследования, Узбекистан, инновационная экономика.

**Abstract:** This research examines key aspects of the development of scientific and innovative systems. Specifically, it analyzes issues such as expanding scientific resources, enhancing international scientific collaboration, strengthening innovation systems, supporting scientific journals, commercializing scientific research, and ensuring transparency in scientific research. The proposed measures in the study outline the necessary steps to improve Uzbekistan's scientific potential, strengthen its position in the international scientific community, and contribute significantly to the development of an innovative economy.

**Keywords:** Scientific resources, international scientific collaboration, innovation systems, scientific journals, commercialization, transparency, scientific research, Uzbekistan, innovative economy.

#### **Kirish**

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki texnologik va ilmiy innovatsiyalarni amalga oshirish uchun katta mablag' talab etiladi. Innovatsiya - bu nafaqat yangi g'oyalar va tadqiqotlarni amalga oshirish, balki ularni moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash va boshqarishdir. Bugungi kunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ko'plab modellari mavjud bo'lib, ular xususiy sektor, davlat byudjeti, xalqaro grantlar, startaplar uchun venchur kapital hisobidan amalga oshirilmoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning tegishli tizimi iqtisodiyotning yuqori texnologiyalar asosida rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va raqobatbardoshlikning o'sishiga olib keladi. Moliyalashtirish mexanizmi texnologik taraqqiyot ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Moliya, shuningdek, innovatsion startaplar va tadqiqot va ishlanmalar uchun asosiy yordam vositasidir. Har bir innovatsion loyiha uni samarali qilish uchun yangi moliyaviy vositalar va usullarni talab qiladi.

Jumladan O'zbekistonda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi PF-165-sonli "2022 — 2026-yillarda davomida O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga binoan strategiyaning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

— innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

— kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘shirishini ta‘minlash;

— yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste‘molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta‘minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish kabilardir[1].

Endilikda innovatsiyalarni moliyalashtirishda bir qator muammolar mavjud. Davlat va xususiy sektorda joriy moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi va resurslarni taqsimlashdagi xatolar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, innovatsion loyiha uchun resurslarni jalb qilishda tavakkalchilik va natijada uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladigan loyihalarning yetarli darajada moliyalashtirilmasligi muhim omillardan biri sifatida tan olinishi kerak.

### Adabiyot sharhi

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari ko‘plab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular turli yondashuvlar va mexanizmlarni taklif etganlar. Mazkur adabiyotlar sharhi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni va amaliy tajribalarni tizimlashtirishga qaratilgan.

Schumpeter innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlarini o‘rganish jarayonida, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishda bank tizimining ahamiyatini alohida ta‘kidlagan [3]. Uning fikricha, kredit mexanizmi innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilishda Kaplan va Stromberg innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur fondlarining rolini tadqiq etganlar [4]. Mualliflar venchur kapitalini jalb qilishning asosiy omillari va mexanizmlarini aniqlashga harakat qilganlar hamda risk-menejment tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

O‘zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari Abdullaev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [5]. Tadqiqotchilar mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy muammolari va istiqbollarni aniqlash holda, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari Yusupov tomonidan chuqur tahlil qilingan [6;15].

Muallifning ta'kidlashicha, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hodiev innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda soliq imtiyozlarining rolini tadqiq etgan[7]. Tadqiqotchi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantirishda soliq mexanizmlaridan foydalanishning samarali yo'llarini taklif etgan.

Xalqaro tajribani o'rganish doirasida Mazzucato innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlatning rolini o'rgangan va "tadbirkor davlat" konsepsiyasini ilgari surgan [8]. Muallif innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat institutlari faoliyatining muhimligini ta'kidlagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini baholash uchun 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida chuqur tahlil o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jadvalda 2019-2023 yillar oralig'ida korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlar aks ettirilgan.

**1-jadval.** O'zbekistonda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari

<b>Klassifikator</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>	<b>2023-yil 2019-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkic hi</b>
<b>Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi</b>	26811.4	31142.8	27378.6	40451.6	55746.5	+108%
<b>Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari</b>	6603.5	6830	17680.8	19130.6	10616.5	+61%

<b>Ilmiy tadqiqot ishlari hajmi</b>	535208. 9	663152. 8	744693. 2	137971 8	–	2022-yilga nisbatan +158%
<b>Fundamental tadqiqot ishlari hajmi</b>	162804	178052. 6	233194. 6	224896. 6	–	2022-yilga nisbatan +38%
<b>Bajarilgan ilmiy-texnik xizmatlar hajmi</b>	160512. 1	182301. 1	143806	109402. 1	260192. 9	+62%

**Manba:** Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019 yilda 26811,4 birlik bo‘lgan ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 55746,5 birlikka yetgan. Bu esa besh yillik davr ichida 108% o‘shish sur‘atini ko‘rsatmoqda. Innovatsion hajmning yillik o‘rtacha o‘shish sur‘atini quyidagi formula orqali hisoblashimiz mumkin:

$$\bar{r} = \frac{Y_t^{\frac{1}{t}}}{Y_0} - 1$$

Bunda:

$\bar{r}$  - o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati

$Y_t$  - oxirgi davr ko‘rsatkichi (55746,5)

$Y_0$  - boshlang‘ich davr ko‘rsatkichi (26811,4)

$t$  - davrlar soni (4)[9;11]

$$\bar{r} = \frac{55746,5^{\frac{1}{4}}}{26811,4} - 1 = 0,2 \text{ yoki } 20\%$$

Demak, korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi bo‘yicha o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 20% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich innovatsion faoliyatga e‘tiborning sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi.

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari dinamikasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2019 yilda 6603,5 birlik bo‘lgan ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 10616,5 birlikka yetgan. Bu esa 61% o‘shishni bildiradi, bu esa innovatsion hajmning o‘shish sur‘atidan (108%) ancha past. Bu holat quyidagi xulosa chiqarishga imkon beradi: innovatsion hajm innovatsion xarajatlarga nisbatan tezroq o‘sgan, bu esa innovatsion faoliyatning samaradorligi oshganligini bildiradi.

“Innovatsion samaradorlik koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$K_s = \frac{\text{Innovatsion hajm}}{\text{Innovatsion xarajatlar}}$$

Va bunga asosan:

$$K_{2019} = \frac{26811,4}{6603,5} = 4,06$$

$$K_{2023} = \frac{55746,5}{10616,5} = 5,25$$

Ko‘rinib turibdiki, innovatsion samaradorlik koeffitsienti 2019 yildagi 4,06 dan 2023 yilga kelib 5,25 ga oshgan. Bu esa innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari hajmi ham sezilarli darajada o‘sgan. 2019-2022 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 535208,9 dan 1379718 ga yetgan, ya’ni 158% ga oshgan. Fundamental tadqiqot ishlari hajmi esa shu davr ichida 38% ga o‘sgan (162804 dan 224896,6 ga).

Keyingi qilinadigan ish, tadqiqot doirasida taqdim etilgan 2-jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekistonda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkiliy tuzilmalar dinamikasini tahlil qilish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda innovatsion ekotizimning tashkiliy asoslarini baholash imkonini beradi.

**2-jadval.** O‘zbekistonda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkiliy tuzilmalar dinamikasi

Klassifikaror	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yil 2019-yilga nisbatan o‘shish ko‘rsatkichi
Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni	304	254	254	262	289	-5%
Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni	1587	1217	1151	1323	5026	+216%

<b>Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni</b>	195	195	179	181	–	2022-yilga nisbatan -8%
--	-----	-----	-----	-----	---	-------------------------

**Manba:** Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni 2019-2023 yillar oralig‘ida notekis dinamikaga ega bo‘lgan. 2019 yilda 304 ta tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2020-2021 yillarda bu ko‘rsatkich 254 taga tushgan, 2022 yilda 262 taga va 2023 yilda 289 taga yetgan. 2019 yilga nisbatan 2023 yildagi ko‘rsatkich 5% ga pasaygan. Yillik o‘zgarish sur‘atlarini hisoblaydigan bo‘lsak +10,3% o‘zgarish bo‘lgan.

Ko‘rinib turibdiki, 2020 yilda sezilarli pasayish kuzatilgan, keyin esa asta-sekin o‘shish tendensiyasi qayd etilgan. Bu dinamikaning zanjirli indekslarini hisoblash orqali ham tahlil qilish mumkin:

$$I_{2020/2019} = 0,836$$

$$I_{2021/2020} = 1,000$$

$$I_{2022/2021} = 1,031$$

$$I_{2023/2022} = 1,103$$

Mazkur ko‘rsatkichlardagi pasayish 2020 yilda yuzag‘a kelgan global pandemiya ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillardagi ijobiy tendensiya esa davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yilda kuzatilgan keskin o‘shish (280%) mamlakatda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilganligi va ularning samaradorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bunday o‘shish sur‘ati innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etilganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni esa 2019-2022 yillar oralig‘ida deyarli o‘zgarmagan. 2019-2020 yillarda 195 ta tashkilot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2021 yilda bu ko‘rsatkich 179 taga tushgan, 2022 yilda esa 181 taga yetgan. 2022 yilga kelib 2019 yilga nisbatan 8% pasayish kuzatilgan.

Ushbu uch ko‘rsatkichni o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun korrelatsiya koeffitsientini hisoblashimiz mumkin. Misol uchun, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bilan

innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. 2019-2022 yillar ma'lumotlari asosida (to'liq davr uchun):

$$\text{Korrelatsiya koeffitsienti}(r) = \frac{\text{Cov}(X; Y)}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

Bunda:

**X** - ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni

**Y** - innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni

**Cov(X;Y)** - kovariatsiya

$\sigma_x$  va  $\sigma_y$  - standart og'ishlar[10;12]

Buni hisoblab chiqish uchun ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar sonini X sifatida, Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonini Y sifatida olamiz va excel dasturida hisob kitob qilib chiqamiz.

Hisob kitob natijasida:

$$X = \{304, 254, 254, 262\}$$

$$Y = \{1587, 1217, 1151, 1323\}$$

$\bar{X}$	$X_1 - \bar{X}$	$X_2 - \bar{X}$	$X_3 - \bar{X}$	$X_4 - \bar{X}$
268,5	35,5	-14,5	-14,5	-6,5
$\bar{Y}$	$Y_1 - \bar{Y}$	$Y_2 - \bar{Y}$	$Y_3 - \bar{Y}$	$Y_4 - \bar{Y}$
1319,5	267,5	-102,5	-168,5	3,5

Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda Kovariatsiya (Cov(X,Y))ni hisoblaymiz.

$$\text{Cov}(X, Y) = \frac{\sum[(X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})]}{n}$$

$$\text{Cov}(X, Y) = \frac{13403}{4} = 3350,75$$

Keyingi qilinadigan ish bu standart og'ishlarni ( $\sigma_x$  va  $\sigma_y$ ) hisoblash X uchun standart og'ish( $\sigma_x$ )ni hisoblab chiqamiz[13;14].

$$\sigma_x = \sqrt{430,75} = 20,76$$

$$\sigma_y = \sqrt{27616,75} = 166,18$$

Hosil bo'lgan natijalardan korrelyatsion koeffitsientni hisoblashimiz mumkin bo'ladi:

$$R = \frac{3350,75}{(20,76 \times 166,18)} = 0,97$$

Korrelatsiya koeffitsienti  $r = 0,97$  ni tashkil etadi, bu esa ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bilan innovatsiyalar

joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Taqribiy hisob-kitoblar natijasida 2019-2022 yillar uchun korrelatsiya koeffitsienti 0,52 ni tashkil etadi, bu esa o'rtacha kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. 2023 yil ma'lumotlari bilan birgalikda olib qaraydigan bo'lsak, korrelatsiya koeffitsienti yanada yuqoriroq bo'lishi mumkin.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Tashkiliy tuzilmaviy ko'rsatkichlar tahlili asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar sonining pasayishi ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tashkiliy optimallashtirishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat berishi mumkin. Bu holat ilmiy faoliyat sifatiga e'tibor kuchayganligini ko'rsatadi.

Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonining keskin o'sishi ayniqsa 2023 yilda mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha choratadbirlar samaradorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu holat innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot tashkilotlari sonining nisbatan barqaror ekanligi, lekin innovatsiyalarni joriy etuvchi tashkilotlar sonining keskin o'sishi ilmiy-tadqiqot natijalari va ularning amaliy qo'llanilishi o'rtasida samarali bog'lanish yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyatning tashkiliy asoslarini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot natijalari transferini ta'minlovchi infratuzilmani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston innovatsion faoliyatning tashkiliy asoslarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli natijalarni qo'lga kiritgan. Ayniqsa, innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar sonining keskin o'sishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi oshganligidan dalolat beradi. Biroq, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni nisbatan barqaror ekanligi innovatsion faoliyatning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] PF-165-son Prezident farmoni – 2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi <https://lex.uz/docs/6102462>

[2] Global innovatsion indeksda O‘zbekistonning o‘rni haqida ma’lumot (PF-165 Farmon matnida qayd etilgan) <https://lex.uz/docs/6102462>

[3] J. Schumpeter, “The Theory of Economic Development” Harvard University Press, Cambridge, 1934.

[4] S. Kaplan and P. Stromberg, “Financial Contracting Theory Meets the Real World: An Empirical Analysis of Venture Capital Contracts,” The Review of Economic Studies, vol. 70, no. 2, pp. 281-315, 2003.

[5] A. Abdullaev, M. Qurbonov, and S. Jumaniyozov, “O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish: muammolar va istiqbollar” Fan va texnologiyalar, vol. 3, pp. 45-52, 2021.

[6] S. Yusupov, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilikning roli” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, vol. 4, pp. 24-31, 2020.

[7] B. Hodiev, “Innovatsion faoliyatni soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirish yo‘llari” Moliya, vol. 2, pp. 15-22, 2021.

[8] M. Mazzucato, “The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths” Anthem Press, London, 2013.

[9] B. Berkinov, “O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning institutsional asoslarini takomillashtirish” Iqtisod va moliya, vol. 5, pp. 32-40, 2020.

[10] G. Xudoyorova, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari” Biznes-ekspert, vol. 7, pp. 28-35, 2021.

[11] N. Akbarova, “Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari” O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, vol. 3, pp. 45-52, 2022.

[12] F. Qodirov, “Tijorat banklarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini oshirish masalalari” Bank axborotnomasi, vol. 6, pp. 18-25, 2021.

[13] A. Blinov, “Commercial Banks in Financing Innovation Projects: Current State and Development Perspectives” Journal of Finance and Banking, vol. 24, no. 3, pp. 367-378, 2020.

[14] E. Mollick, “The dynamics of crowdfunding: An exploratory study” Journal of Business Venturing, vol. 29, no. 1, pp. 1-16, 2014.

[15] D. Ismailov, “Raqamli texnologiyalar asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish” Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar, vol. 2, pp. 45-52, 2022.